



HUDUDLAR RIVOJLANISHI VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI

DSc Otamurodov Shavkat

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

ORCID: 0000-0003-2464-8103

shavkat_otamurodov@tues.uz

Eshqulova Nasiba

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston
iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"*

ilmiy-tadqiqot markazi

ORCID: 0009-0008-4177-4084

nasiba_eshqulova@tues.uz

Annotatsiya. Maqolada mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida hududlar eksportining dinamikasi va hozirgi holati, uning tarkibiy o'zgarishlari tahlil qilingan. Shuningdek, eksportni diversifikatsiyalash va barqarorligini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. 2014-2024 yillar bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida Surxondaryo viloyati eksport dinamikasi tahlil qilingan, ARIMA modeli yordamida 2025-2030 yillarga prognozlar ishlab chiqilib, eksport hajmining o'sish tendensiyasi aniqlangan. Shuningdek, eksport tarkibini kengaytirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish, raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali eksportni rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, hududlar eksporti, diversifikatsiya, iqtisodiy o'sish.

ЗНАЧЕНИЕ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ

DSc Otamurodov Shavkat

Термезский университет экономики и сервиса

Эшкулова Насиба

Научно-исследовательский центр

*«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. В статье проанализированы динамика и современное состояние экспорта регионов в контексте экономического развития страны, а также структурные изменения его состава. Рассмотрены вопросы диверсификации экспорта и обеспечения его устойчивости. На основе статистических данных за 2014–2024 годы проведён анализ динамики экспорта Сурхандарьинской области, а с использованием модели ARIMA разработаны прогнозы на 2025–2030 годы, выявляющие тенденцию роста объёма экспорта. Кроме того, предложены рекомендации по расширению экспортной структуры, освоению новых рынков и развитию экспорта посредством внедрения цифровых технологий.

Ключевые слова: внешняя торговля, региональный экспорт, диверсификация, экономический рост.

THE IMPORTANCE OF FOREIGN TRADE IN ENSURING REGIONAL DEVELOPMENT AND MACROECONOMIC STABILITY

DSc Otamurodov Shavkat

Termez University of Economics and Service

Eshkulova Nasiba

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of Economic Development of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. *The article analyzes the dynamics and current state of regional exports in the context of the country's economic development, as well as structural changes within export composition. Issues related to export diversification and ensuring its sustainability are also examined. Based on statistical data for the period of 2014–2024, the dynamics of exports in the Surkhandarya region are analyzed, and forecasts for 2025–2030 are developed using the ARIMA model, which reveal a positive trend in export growth. In addition, the study provides proposals aimed at expanding the export structure, entering new markets, and promoting export development through the implementation of digital technologies.*

Keywords: *foreign trade, regional export, diversification, economic growth.*

Kirish.

Har bir davlatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida iqtisodiyotni tarkibiy diversifikatsiya qilish masalasi barqaror makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, tashqi iqtisodiy xavflarni minimallashtirish va yuqori sur'atlarda iqtisodiy o'sishga erishishning ustuvor strategik yo'nalishi sifatida belgilangan. Bu jarayonda xalqaro savdo milliy iqtisodiyotning jahon xo'jalik tizimiga chuqur integratsiyalashuvi, tashqi bozorlar geografiyasini kengaytirish hamda investitsion salohiyatni oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Xususan, eksport faoliyatining rivojlanishi xorijiy valyuta tushumlarini ta'minlash, bandlik darajasini oshirish va ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardosh, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar yaratishga bo'lgan rag'batini kuchaytiradi. Shu bilan birga, eksportning diversifikatsiyalashuvi milliy iqtisodiyotning tarmoqlararo barqarorligini ta'minlab, jahon bozorlariga chuqurroq integratsiya jarayonlarini jadallashtiradi hamda iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Jahon savdo tashkiloti (WTO) ma'lumotlariga ko'ra, global eksport hajmi 2020 yilda pandemiya ta'sirida 22,3 trillion AQSH dollari tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 31,8 trillion dollarga, 2024 yilda esa, 3,7% (1,2 trillion AQSH dollari) ga oshib, 32,2 trillion dollarga yetgan. Shu tariqa, 2020–2024 yillarda global eksport hajmi o'rtacha 4,1% yillik o'sish sur'atini namoyon etdi. Jahon eksportining taxminan 19–22 foizi raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, e-commerce savdosi 2024 yilda 6,5 trillion AQSH dollarga yetib, xalqaro savdoning eng tez rivojlanayotgan segmenti sifatida qayd etilgan (UNCTAD, WTO, OECD hisobotlariga ko'ra)¹. 2024-yil yakunlariga ko'ra, xalqaro savdoda Xitoy 3,5 trillion AQSh dollardan ortiq eksport hajmi bilan yetakchilik qilmoqda. AQSh 3,2 trillion, Germaniya 1,66 trillion va Buyuk Britaniya 1,1 trillion AQSh dollarlik eksport ko'rsatkichlari bilan dunyo bozorida asosiy aktorlar sifatida global savdo dinamikasini belgilamoqda².

Eksport hajmining yuqoriligi mamlakatlarga barqaror valyuta tushumi va YAIM o'sishini ta'minlab, raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya qilish hamda innovatsiyalarni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon yangi ish o'rinlari yaratib, daromadlarni oshiradi va global savdoda strategik ustunlikni mustahkamlaydi. O'zbekistonda

¹ OEC (Observatory of Economic Complexity) Dunyo mamlakatlarining tashqi savdo statistikasi portali <https://oec.world/en>.

² Dunyo mamlakatlari statistika portali <https://www.statista.com>.

ham eksport hajmini oshirish, uni tarkibiy jihatdan diversifikatsiya qilish hamda yalpi ichki mahsulotda va hududlar kesimida eksport ulushini sezilarli darajada ko'paytirishga qaratilgan keng ko'lamli strategik islohotlar va amaliy tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining navbatdagi qaroriga asosan, 2025-2026-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirish hamda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari belgilanib, bunga asosan, 2025-yilda meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmini jami 3,5 milliard AQSH dollariga yetkazish, yil yakuniga qadar 8 ta davlatga yangi 30 turdagi mahsulotlar eksporti uchun fitosanitariya ruxsatnomalarini olish, istiqbolli bozorlarga 2025-yilda 442 million AQSH dollari, 2026-yilda 575 million AQSH dollari miqdoridagi meva-sabzavot mahsulotlari eksportini ta'minlash, shuningdek, hududlarda jami 2,1 million tonna meva-sabzavot mahsulotlari uchun qadoqlar ishlab chiqarish bo'yicha 40,5 million AQSH dollari miqdoridagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsad qilib belgilandi. Shu bilan birga, 2028-yilgacha zamonaviy qadoqlangan meva-sabzavot mahsulotlari realizatsiyasini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari uchun foyda va ijtimoiy soliq stavkalari 1% etib belgilanishi ularning raqobatbardoshligini oshiradi. 2027-yilgacha dukkakli ekinlar uskunalari importida bojxona boji 1% qilib belgilanib, texnologik yangilanishni qo'llab-quvvatlaydi. Yirik xo'jaliklarda 1% maydonda qayta ishlash infratuzilmasi barqarorlikni mustahkamlaydi (Qaror, 2025). Shuningdek, mamlakatimizda eksportni kengaytirishga maqsadida, eksport bojxona bojlari stavkalarini moslashtirish, go'sht, guruch, teri, kimyo mahsulotlari kabi tarmoqlarda pasaytirilgan stavkalarni tasdiqlab borish; xorijiy bozorlarga chiqishda ruxsat-huquqiy yordam sertifikatlashtirish talablarini soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab qo'yildi (Farmon, 2025).

Adabiyotlar sharhi.

Mamlakat tashqi savdo aylanmasi, eksport diversifikatsiyasi va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalalari, ko'plab xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning fundamental ilmiy izlanishlarida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Masalan, Imbs va Wacziarg (2003) eksport diversifikatsiyasi dastlab iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi, biroq yuqori daromad bosqichiga o'tilishi bilan iqtisodiyotning rivojlanish modeli tobora ixtisoslashuv jarayonlariga yo'naltiriladi degan fikrlarni aytgan bo'lsa, Hausmann, Hwang va Rodrik (2007) izlanishlarida eksport tarkibining sifati muhim ahamiyat kasb etishi, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi qayd etilgan. Hesse (2008) esa eksport diversifikatsiyasini mamlakatlarni xomashyo narxlarining keskin o'zgarishidan himoya qiluvchi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, Cadot, Carrère va Kahn (2011) eksportning kengayishi asosan ikki yo'nalish – yangi mahsulot turlarini joriy etish ("extensive margin") va mavjud mahsulot hajmini ko'paytirish ("intensive margin") orqali amalga oshirishini asoslab bergan. Shu bilan birga, Lederman va Maloney (2012) eksport diversifikatsiyasini innovatsion rivojlanish, texnologik yangilanish va ishlab chiqarish bazasini kengaytirishning zarur sharti sifatida baholashgan. Mixaylova (2017) esa Rossiya misolida eksport diversifikatsiyasi strategiyasini ishlab chiqib, xomashyo daromadlarini qayta yo'naltirish orqali G'arbga qaramlikni kamaytirish va sof eksportning ko'payishi milliy talabni ham oshirishini ko'rsatgan.

Mamlakatimiz iqtisodchilari Mirkasimov (2020), Hasanov va Sanaev (2018), Mavlanova (2017), Tursunov (2021) Otamurodov va Eshqulovalar (2025) tomonidan tashqi savdo aylanmasi, shuningdek eksport diversifikatsiya va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri to'g'risida bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada hududlar iqtisodiyotni rivojlantirish va diversifikatsiya qilishda tashqi savdo, xususan eksportining ahamiyati bo'yicha yetakchi mahalliy va horijiy iqtisodchi olimlarning tadqiqot natijalarini, shuningdek, xalqaro va milliy statistika ma'lumotlarini taqqoslash,

guruhlash, iqtisodiy va mantiqiy tahlil, abstpakt hamda analitik tahlil kabi usullardan foydalanildi. 2014-2024 yillar bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida Surxondaryo viloyati eksportini prognozlashda ARIMA modelidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi o'n yillik ma'lumotlar O'zbekiston tashqi savdosida barqaror o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. 2014–2024 yillarda tashqi savdo aylanmasi 2,44 barobarga oshib, umumiy o'sish sur'ati 397,1 foizni tashkil etdi. Eksport hajmi 2,5 baravarga kengayib 26,9 mlrd AQSh dollarga yetgan bo'lsa-da, importning qariyb 3 baravar tezroq o'sishi salbiy saldo hajmini saqlab qoldi va 2024-yilda -12 mlrd AQSh dollarga teng bo'ldi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, hududlar kesimida tashqi savdo keskin nomutanosib taqsimlangan, masalan, Toshkent shahri umumiy tashqi savdo aylanmasining 39,5 foizini ta'minlab mutlaq yetakchilik qilmoqda. Farg'ona, Andijon va Toshkent viloyatlari esa nisbatan faol bo'lib, Qoraqalpog'iston, Sirdaryo, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida ulush esa 1 foiz atrofida qolmoqda. Bu esa hududiy nomutanosiblik muammosini kuchaytirib, eksport infratuzilmasini rivojlantirish, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi hajmi (2014-2024 y) mln. AQSh doll.


	Hududlar	2014	2020	2023	2024	Barobar 2014/ 2024	Ulushi 2024 (%)	O'sish 2014/ 2024
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	316,9	539	535,2	653	2,06	0,97	3,4
2	Andijon viloyati	2453,4	2795,4	5047,9	4201,4	1,71	6,25	17,5
3	Buxoro viloyati	1002,8	831,2	1212,3	1324,5	1,32	1,97	3,2
4	Jizzax viloyati	171,7	816,7	1432,2	2032,1	11,84	3,02	18,6
5	Qashqadaryo viloyati	606,9	542,1	737,8	1239,1	2,04	1,84	6,3
6	Navoiy viloyati	990,5	1312,3	1331,3	1601,1	1,62	2,38	6,1
7	Namangan viloyati	330,7	873,8	1404,9	1381,5	4,18	2,05	10,5
8	Samarqand viloyati	954,2	1491,5	2892,4	3044,6	3,19	4,53	20,9
9	Surxondaryo viloyati	261,2	416,9	327,9	424,8	1,63	0,63	1,6
10	Sirdaryo viloyati	486	612,7	861,6	678	1,40	1,01	1,9
11	Toshkent viloyati	3864,2	4604,2	5783	5896,6	1,53	8,77	20,3
12	Farg'ona viloyati	968,3	1463,1	1979,3	2171,4	2,24	3,23	12,0
13	Xorazm viloyati	305,5	469,3	881,1	953,4	3,12	1,42	6,5
14	Toshkent shahri	9489,6	12360,1	25186,3	26528,2	2,80	39,45	170,4
15	O'zbekiston Respublikasi	27530,1	36256,1	63528,6	67238,4	2,44	100,00	397,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan.

Shu bilan birga, eksportni diversifikatsiya qilish va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni kengaytirish tashqi savdo taqchilligini kamaytirishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, tashqi savdo hajmining hududiy dinamikasi ishlab chiqarish bazasi, transport-logistika tizimi va investitsion muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning diversifikatsiyasi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. So'nngi o'n yillik natijalari asosida Surxondaryo viloyati tashqi savdo hajmini tahlil qiladigan bo'lsak, bu sohada 2014–2016


yillarda past natija qayd etilgan, biroq 2018 yilda 589,1 mln. AQSh dollarga yetib eng yuqori darajaga chiqdi. 2019 yilda ham yuqori ko'rsatkich saqlangan, ammo pandemiya davrida pasayish kuzatildi. 2024 yilda esa 416,1 mln. AQSh dollarlik hajm qayd etilib, hududning tashqi iqtisodiy faolligi tiklana boshladi. Savdo balansida ham o'zgarishlar kuzatilgan: 2014–2015 yillarda ijobiy saldo qayd etilgan bo'lsada, 2016–2019 yillarda import ustunligi sabab yana salbiy natija shakllandi. 2020-yildan boshlab eksportning ustunligi tiklanib, 2024 yilda 122,9 mln. AQSh dollarlik ijobiy saldoga erisha boshladi. Bu jarayon viloyat tashqi savdosining tiklanishi, eksport salohiyatining o'sishi va hududiy iqtisodiy integratsiyaning kuchayayotganidan dalolat beradi. (1-rasm)



1-rasm. Surxondaryo viloyatining tashqi savdo dinamikasi. (2014-2024 y.) mln. AQSh doll.


Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan.

Ma'lumki, tashqi savdo diversifikatsiyasi nafaqat eksport mahsulotlari nomenklaturasining kengayishi, balki ularning geografik yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish orqali ham amalga oshiriladi. Bu esa tashqi bozorlardagi barqarorlikni ta'minlab, eksportning mintaqaviy va tarmoq tuzilmasini optimallashtirishga xizmat qiladi. Ushbu yillar davomida Surxondaryo viloyatining MDH davlatlari bilan savdo hajmi 2018 yilda 207,4 mln AQSH dollari bilan eng yuqori darajaga yetgan bo'lsa, keyingi yillarda biroz pasayish kuzatilgan. Shu bilan birga, boshqa hamkor mamlakatlar bilan savdo 2019 yilda 419,8 mln AQSh dollar bilan maksimal natijani qayd etgan. 2024 yilda esa MDH davlatlari bilan savdo hajmi 146,4 mln AQSh dollar, boshqa hamkor davlatlar bilan esa 269,7 mln AQSh dollarni tashkil etgan. Bu esa tashqi savdoning geografik diversifikatsiyasi kengayib, viloyat eksporti va importining jahon bozorlariga yanada integratsiyalashib borayotganini ko'rsatadi. Umuman, hududning tashqi savdosida xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik ustunligi saqlanib, bu iqtisodiy barqarorlik va tashqi bozorlar bilan aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Surxondaryo viloyatining tashqi savdosida MDH va hamkor davlatlar ulushi (2024 y.) ming. AQSh doll. Mln doll.

Hozirgi kunda, Surxondaryo viloyatining tashqi savdo hajmi asosan oziq-ovqat mahsulotlari eksportiga tayanmoqda. 2024-yilda oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 122,6 mln AQSh dollarini tashkil etib, umumiy eksport tarkibida eng katta ulushga ega bo'lgan. Shu bilan birga, ushbu toifadagi import hajmi 24,2 mln AQSh dollar bo'lib, bu sohada ijobiy savdo balansi mavjudligini ko'rsatadi. "Boshqa mahsulotlar" guruhi (85,9 mln AQSh doll.) viloyatda ishlab chiqarish va eksport turlarining kengayib borayotganini ifodalasa, xizmatlar sektori ham 8,2 mln AQSh dollar eksport hajmi bilan iqtisodiyotda muhim o'rin tutmoqda (3-rasm).



3-rasm. Surxondaryo viloyatining tashqi savdosi tarkibi (2024 y.) ming. AQSh doll.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan.

Biroq ayrim sohalarda, masalan, mashina va uskunalar importi, kimyoviy mahsulotlar, rangli va qora metall mahsulotlarida importning ustunligi kuzatilmoqda. Bu holat hududda texnologik bazaning va sanoat ishlab chiqarish quvvatlarining yetarlicha rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Surxondaryo viloyati tashqi savdosida eksportning ustunligi saqlanib qolgan, biroq ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlarida texnologik modernizatsiya, raqamli

texnologiyalar va logistika infratuzilmasini kuchaytirish orqali eksport diversifikatsiyasini yanada kengaytirish zarurdir. 2010-yil natijalari bilan taqqoslaganimizda, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti yetakchilikni saqlab qolgan bo'lib, 2 barobar ko'paygan. Bu holat viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mashina va uskunalar eksporti 3,4 ming dollardan 1,97 mln dollarga ko'tarilib, 583 barobarga oshgan. Bu hududda sanoat va texnologik ishlab chiqarishning rivojlanayotganidan dalolat beradi. Biroq energetika va rangli metall mahsulotlari eksporti keskin kamaygan. Ayniqsa, paxta eksportining 2010 yildagi 187,7 mln AQSh dollardan nol darajagacha tushishi ishlab chiqarishni chuqur qayta ishlashga o'tish siyosati bilan bog'liq. Umuman olganda, Surxondaryo viloyati eksport tarkibi xomashyo eksportidan tayyor mahsulotlar va xizmatlar eksportiga o'tish bosqichida bo'lib, bu diversifikatsiya jarayonining kuchayib borayotganini ko'rsatadi. (2-jadval)


2-jadval

Surxondaryo viloyatining eksport tarkibi 2010-2024 yillar (ming AQSh doll.)

	Tovarlar eksporti	2010 y. ming AQSh doll.	2015 y. ming AQSh doll.	2020 y. ming AQSh doll.	2023 y. ming AQSh doll.	Barobar 2010/ 2024	Ulushi 2023 (%)	O'sish 2010/ 2023
2	Oziq-ovqat mahsulotlari	60101,4	76693,3	117526,6	122579,0	2,0	55,7	1,0
8	Boshqalar	14790,4	14190,7	84243,8	85909,7	5,8	39,0	4,8
7	Xizmatlar	6580,4	38500,5	2946,0	8236,1	1,3	3,7	0,3
6	Mashina va uskunalar	3,4	40,8	348,2	1976,4	583,2	0,9	582,2
3	Kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari	20,0	-	865,7	868,2	43,5	0,4	42,5
4	Energetika va neft mahsulotlari	9476,5	77,2	77,1	586,9	0,1	0,3	-0,9
5	Rangli va qorametal	11,6	0,0	154,8	69,9	6,0	0,0	5,0
1	Paxta	187766,8	84286,2	7333,0	0,0	0,0	0,0	-1,0

Tadqiqotimiz doirasida Surxondaryo viloyati eksportining 2014-2024 yillardagi ma'lumotlar asosida ARIMA model yordamida, 2025-2030 yillar uchun eksport hajmining prognozi ishlab chiqildi. ARIMA model parametrlari quyidagicha bo'ldi: Dikki-Fyuller (ADF) testi vaqt qatorlari statsionarligini aniqlash uchun qo'llanildi. Surxondaryo viloyati eksport hajmi uchun ADF testida o'zgarmas qatnashmagan modelda $p=0,0000001848$ ($<0,05$) va qatnashgan modelda $p=0,258$ ($>0,05$) chiqdi. Fisher testi natijalariga ko'ra ϕ koeffitsiyentlari ($p_1=0,0037$; $p_2=0,0340$) ahamiyatli, lekin $\theta=0,9786$ ahamiyatli emas.

ARIMA modeli asosida 2025-2029 yillar uchun tuzilgan prognoz natijalari hajmning bosqichma-bosqich, masalan 2025 yilda 275,4 mln. AQSh dollardan 2029 yilda 344,4 mln. AQSh dollargacha ortib borishini ko'rsatadi. 2030 yilga kelib esa, 367,5 mln. AQSh dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 36,4 % o'sishni anglatadi. Bu kelgusi besh yillikda barqaror o'sish istiqbolini anglatadi. Biroq pastki va yuqori chegaralar tahlili uzoq muddatli bashoratlarda noaniqlikning kuchayishini ko'rsatmoqda, chunki 2028-2029 yillarda pastki chegara manfiy qiymatlarga chiqib ketgan. Shu sababli qisqa va o'rta muddatli prognozlar amaliy qarorlar qabul qilish uchun ishonchliroq, uzoq muddatli natijalar esa ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi lozim. (4-rasm)



4-rasm Surxondaryo viloyatining tovarlar eksporti hajmi prognozi (2025-2027 y)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan.

Hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar, eksportni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Surxondaryo viloyatida eksportni kengaytirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, E-commerce platformalari mahsulotlarni global bozorga tez olib chiqishni ta'minlasa, IoT texnologiyalari sifat nazorati va logistika jarayonlarini optimallashtiradi. Big Data va sun'iy intellekt esa talab prognozi va narx dinamikasini tahlil qilib, eksport strategiyasini takomillashtirish imkonini beradi. Blokcheyn texnologiyalari esa mahsulot kelib chiqishini tasdiqlash orqali xalqaro bozorda ishonchni oshiradi, raqamli marketing esa hududiy brendlarning tanilishini kuchaytiradi. Elektron hujjatlashtirish tizimlari bojxona va kontraktual jarayonlarni soddalashtirib, vaqt hamda xarajatlarni kamaytiradi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni eksport jarayonlariga keng tatbiq etish eksport hajmini oshirish, geografiyasini kengaytirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston eksportni rivojlantirish va diversifikatsiya qilish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Mamlakatimizda eksport hajmini kengaytirish uchun keng imkoniyatlar hamda yetarli resurs zaxiralari mavjud. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish, eng avvalo, jahon bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlay oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega, intensiv va sifat jihatidan ustun mahsulotlar yaratishni talab etadi.

Surxondaryo viloyatining tashqi savdosida eng avvalo, eksport diversifikatsiyasini ta'minlab, qayta ishlangan mahsulotlar va yuqori qo'shimcha qiymatga ega tovarlar ulushini oshirish lozim. Shuningdek, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali tashqi bozorga chiqish xarajatlarini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nihoyat, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularga soliq va bojxona imtiyozlari berish, hamda xorijiy bozorlar haqida axborot va marketing xizmatlarini kuchaytirish eksport salohiyatining yanada ortishiga xizmat qiladi.

Surxondaryo viloyatining tashqi savdo salohiyati iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birga iqlim va geografik joylashuv omillari bilan ham belgilanadi. Janubiy chegaradosh hudud sifatida u xalqaro tranzit va savdo yo'llari uchun muhim ahamiyatga ega. Subtropik iqlim yiliga bir necha hosil olish imkonini yaratib, qishloq xo'jaligi eksportini kengaytiradi. Shu bois issiqxonalar, tomchilatib sug'orish va organik dehqonchilikni rivojlantirish, Afg'oniston hamda Janubiy Osiyo bozorlariga yo'naltirilgan eksport koridorlarini yaratish, shuningdek, quritilgan meva, sharbat va vino kabi qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish zarur. Bu esa viloyat eksportini diversifikatsiya qilish va xalqaro integratsiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish hududiy eksportni rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Xususan, elektron savdo platformalari mahsulotlarni global bozorlarga tezkor olib chiqishni ta'minlaydi, IoT texnologiyalari qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Big Data eksport bozorlarini chuqur tahlil qilishga, blokcheyn esa mahsulot kelib chiqishini tasdiqlab, xalqaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli marketing vositalari esa hududiy brendlarni ilgari surish orqali eksport diversifikatsiyasi va global integratsiyani jadallashtiradi.

Adabiyotlar/Адабиятлар/Reference:

Imbs J., Wacziarg R. (2003) *Stages of Diversification* // *American Economic Review*. – Vol. 93. – No. 1. – P. 63–86.

Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. (2007) *What You Export Matters* // *Journal of Economic Growth*. Vol. 12. – No. 1. – P. 1–25.

Hesse H. (2008) *Export Diversification and Economic Growth*. – Washington: World Bank, – 32 p. (Commission on Growth and Development Working Paper; No. 21).

Cadot O., Carrère C., Strauss-Kahn V. (2011) *Export Diversification: What's Behind the Hump?* // *Review of Economics and Statistics*. Vol. 93. – No. 2. – P. 590–605.

Lederman D., Maloney W.P. (2012) *Does What You Export Matter? In Search of Empirical Guidance for Industrial Policies*. – Washington: World Bank, – 245 p.

Михайлова, Эллина Юрьевна (2017). "Опыт диверсификации экспорта и преодоление его сырьевой направленности." *Торговая политика* 3 (11): 97-110.

Mirkasimov B., Abdurakhmanov K., et al. (2020) *Uzbekistan: Quality Job Creation in an Era of Increased Openness*. In: *Asian Development Bank Report*. – Manila: ADB, – P. 115–138.

Хасанов Ш., Санаев Г. (2018) *Ташқи савдо таркиби ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспортини диверсификация қилиш йўналишлари (Самарқанд вилояти мисолида)* // *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар*. №3. – С. 45–52.

Мавланов И.Р. (2017) *Экономическая дипломатия Республики Узбекистан* // *Внешняя политика стран СНГ* / Ред.— сост. Д.А. Дегтерев, К.П. Курyleв. –М.: Издательство «Аспект Пресс», –С.445-453.

Турсунов Б.О. (2021) *Тўқимачилик саноатида экспортни диверсификация қилиш ва қўшимча қиймат занжирини кенгайтириш масалалари* // *Иқтисодий тадқиқотлар жўрнали*. №4. – С. 27–35.

Otamurodov Sh.N., Eshqulova N.N. (2025) *O'zbekiston eksportining o'sish omillari: mahsulot va bozor diversifikatsiyasi tahlili/ Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil/6-son/iyul/ 197-205 b.*

Qaror (2025) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.04.2025 yildagi PQ-136-sonli qarori "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori*

Farmon (2025) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.04.2025 yildagi PF-67-sonli "Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.*